

## **Shahidlar xotirasi va qatag'on qurbanlari**

Toshkent shahrida joylashgan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui mustabid tuzum davrida zulm va tajovuz qurboni bo'lgan minglab vatandoshlarimiz xotirasiga ko'rsatilgan ulkan ehtiromning yorqin ifodasidir. Bunday mo'tabar maskanlarni ziyyarat qilish kishi ruhini poklaydi, ezgulikning abadiy ekani haqida mushohada qilishga undaydi.

Bugun "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetining 4-kurs talabalari "Shahidlar xotirasi" maydoni hamda "Qatag'on qurbanlari" muzeiyiga tashrif buyurishdi.

Ayni chog'da shunday ziyyaratgohlar va qadamjolar bugungi tinch va xotirjam hayot, to'kinlik va farovonlikka qanday og'ir yo'qotishlar, sinovlar va mashaqqatlar evaziga erishganimizni yosh avlodga anglatadigan, ularning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini yanada chuqquroq singdirishga xizmat qiladigan ma'naviyat va ma'rifat o'choqlaridir.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov